

**TAMOM BO'LMAGAN JINOYATLAR****Valiyev Dostonjon Asqar o'g'li****Duskulova Dilnoza Hosilbek qizi**

Jizzax viloyati yuridik texnikum o'quvchilari

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.14288490>**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada tamom bo'lmagan jinoyat, jinoyat sodir etish bosqichlari, jinoiy qasdning shakllanishi, jinoiy tajovuz qaratilgan obyektning ijtimoiy ahamiyati haqida yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* jinoiy oqibat, jinoyat sodir etishga suiqasd, ijtimoiy xavfli qilmish, huquqqa xiloflilik, aybning mavjudligi, jazoga sazovorlik.

**НЕОКОНЧЕННЫЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ**

*Аннотация.* В данной статье описываются неоконченное преступление, стадии преступления, формирование преступного умысла, социальная значимость объекта криминальной агрессии.

*Ключевые слова:* уголовное последствие, покушение на преступление, общественно опасное деяние, противоправность, наличие вины, наказание.

**UNFINISHED CRIMES**

*Abstract.* This article describes the unfinished crime, the stages of crime, the formation of criminal intent, and the social significance of the object of criminal aggression.

*Key words:* criminal consequence, attempt to commit a crime, socially dangerous act, illegality, presence of guilt, punishment.

Tamom bo'lmagan jinoyat shaxsga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yoki jinoyat qilishdan ixtiyoriy ravishda qaytish tufayli oxiriga yetkazilmay qolgan jinoyat hisoblanadi. Qonunchilikka muvofiq jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilishdan tashqari jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish tamom bo'lmagan jinoyat hisoblanadi. Tamom bo'lmagan jinoyat bu shaxsning jinoiy niyati oxirigacha yetkazilmagan qilmish hisoblanadi. Tamom bo'lmagan jinoyatda shaxsning maqsadi amalga oshirilmagan bo'ladi. Demak, tamom bo'lmagan jinoyat shaxsning o'ziga bog'liq va bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmagan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi.

Jinoiy tajovuz qaratilgan obyektning ijtimoiy ahamiyati tajovuz obyektiga yetkazilishi mumkin bo'lган zarar hajmi yoki miqdori va jinoiy oqibatning yuz berishining yaqinligi tamom bo'lmagan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik xususiyatini ifodalaydi.

Tamom bo‘lмаган жинойatlarda жинойatning barcha belgilari-ijtimoiy xavflik, huquqqa xiloflik, aybning mavjudligi va jazoga sazovorlik kabi belgilari mavjud.

Tamom bo‘lмаган жинойат bu жинойат qонуни bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga real xavf tug‘diradigan, qonunga xilof, jazoga sazovor va qasddan sodir etiladigan жинойатга tayyorgarlik ko‘rish, жинойат sodir etishga suiqasd qilish, жинойатдан ixtiyoriy qaytishdan iborat ijtimoiy xavfli qilmish.

Jinoyat sodir etish bosqichlari quyidagilardan iborat jinoiy qasdning shakllanishi, jinoiy qasdning namoyon bo‘lishi, jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rish; jinoyat sodir etishga suiqasd qilish va tamom bo‘lgan jinoyat.

Jinoiy qasdning shakllanishi shaxs tomonidan har qanday harakat yoki harakatsizlik bajarilishidan avval ongida muayyan xoxish-istikshakllanadi. Xohish-istikshakllanadi amalga oshirishning rejasi, kutilayotgan natijasi, yuz berishi mumkin bo‘lgan oqibatlar gavdalanadi. Bularning barchasi shaxsning ruhiy holati, ichki kechinmalari bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, xoxish-istikshakllanadi amalga oshirish yuzasidan qat’iy xulosa shakllanadi. Ya’ni shaxsda motiv shakllanadi, maqsad aniqlashtirilib, qaror qabul qilinadi. Motiv, maqsad, qaror qabul qilish ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

Qayd etish joizki, jinoyat huquqining umum e’tirof etilgan prinsipiiga ko‘ra hech kim niyat uchun jazolanishi kerak emas. (cognitionis poenam nemo patitur). Shunga muvofiq qasdning shakllanishi jinoyat-huquqiy munosabatlarning predmeti bo‘lishi mumkin emas. Haqiqatdan ham shaxs jinoyat haqida o‘ylagani uchun, jinoyat sodir etishga qasd qilganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilmasligi lozim. Shuning uchun ham mazkur bosqich uchun jinoiy javobgarlik belgilanmagan.

Jinoiy qasdning namoyon bo‘lishi bosqichi. Jinoyat sodir etishning keyingi bosqichi jinoiy niyatning namoyon bo‘lish bosqichi hisoblanadi. Jinoiy niyatning namoyon bo‘lishi (yoki boshqacha qilib aytganda, jinoiy irodaning namoyon bo‘lishi bosqichi) shaxsning jinoiy maqsadi og‘zaki ravishda so‘z orqali, yozma ravishda ifodalanishi muayyan shaxslarga oshkor etilishi mumkin, biroq unda jinoiy niyat amalga oshirilishidan xafvsirash uchun asos bo‘ladigan faktik belgilar mavjud bo‘lmaydi.

Tamom bo‘lмаган жинойatlarda жинойatning barcha belgilari-ijtimoiy xavflik, huquqqa xiloflik, aybning mavjudligi va jazoga sazovorlik kabi belgilari mavjud.

Tamom bo‘lмаган жинойatlarning ijtimoiy xavfligi jinoyat qонуни bilan muhofaza qilinadigan obyektlarga zarar yetkazishning real xafvi yuzaga kelishida ifodalanadi. Ya’ni tamom bo‘lмаган жинойatlar ham shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkinligi

tufayli ijtimoiy xavfli hisoblanadi. Tamom bo‘lмаган jinoyatlarning huquqqa xilofligi shundaki, JK Maxsus qismida ko‘rsatilgan jinoyatlarga tayyorgarlik ko‘rish va jinoiy tajovuz qilish jinoyat qonuni bilan taqiqlangan bo‘lib, uni sodir qilish jinoyat qonuni normalarini buzish hisoblanadi.

Tamom bo‘lмаган jinoyatlarni sodir etayotgan shaxs jinoyatga sharoit yaratish yoki jinoyatni bevosita sodir etishni ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko‘zi yetgan va mazkur oqibatlarni yuz berishini istagan yoki ongli ravishda yo‘l qo‘yib bergen bo‘ladi. Demak, tamom bo‘lмаган jinoyatlar ehtiyyotsizlik orqali sodir etilmay, faqat to‘g‘ri qasddan amalga oshiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, tamom bo‘lмаган jinoyat bu jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga real xavf tug‘diradigan, qonunga xilof, jazoga sazovor va qasddan sodir etiladigan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish, jinoyatdan ixtiyoriy qaytishdan iborat ijtimoiy xavfli qilmish.

Tamom bo‘lмаган jinoyatlar shaxsning irodasiga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan va shaxsning irodasiga ko‘ra oxiriga yetkazilgan jinoyatga bo‘linadi.

## **REFERENCES**

1. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 263-343 bet.
2. Usmonaliev M., Bakunov P.B. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. —T., «Yangi asr avlod», 2010.
3. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) Darslik. Mualliflar jamoasi // Mas’ul muharrir. X.Ochilov – T.:Adolat nashriyoti, 2020 yil. 103-124 b.
4. <http://www.lex.uz>
5. <http://www.norma.uz>